

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**



**PALEOEKOLOGIYA VA SIVILIZATSIYA DINAMIKASI
FANINING
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi: 220 000 –Gumanitar fanlar (Tillardan tashqari)
Mutaxassisliklar: 70220401-Arxeologiya
70220301- Tarix
70220601- Etnografiya, etnologiya va antropologiya

Fan/modul kodi PSD1106	O'quv yili 2024-2025	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Paleoekologiya va sivilizatsiya dinamikasi	54	126	180
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – “Paleoekologiya va sivilizatsiya dinamikasi” fanining predmeti to'g'risida magistr'larga umumiy tushuncha berish, geologiya, ekologiya, geografiya ta'limotlari, arxeologik manbalari va yodgorliklari, hamda yangi nazariyalarni o'rganishda ilmiy jihatdan yondashish, talabalarda zamonaviy bosqichiga oid bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - magistr'larga “Paleoekologiya va sivilizatsiya dinamikasi” fanining umumiy tavsifi, davrlashtirish va xronologiya, insonning tabiatdagi o'rni, iqlim o'zgarishlari jarayoni bilan aloqadorligi bo'lgan tarixiy hodisalar, sivilizatsiya dinamikasi haqida chuqur bilim berishdan iborat.</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu: Fanning maqsadi, vazifalari va dolzarbligi. Ekologiya va sivilizatsiya tushunchalari</p> <p>Ekologiya tushunchasi. Ekologiyaga oid bilimlarning shakllanishi. Inson qadimdan o'zini hayvonot va o'simlik dunyosi bilan bog'liqligini tushunib yetgan. Bu tushuncha ilk diniy e'tiqod va urf-odatlar bilan bog'liq hodisalarda tabiatning inson tomonidan o'zlashtirila boshlanganligida shakllanadi. Madaniyat taraqqiyotining ekologik omillari. Sivilizatsiya tushunchasi.</p> <p>2-mavzu: Inson ekologiyasi. Insonning tabiatda tutgan o'rni haqidagi bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi</p> <p>Inson va ekologiya rivojlanishining tabiiy shart-sharoitlari. Yer shari tabiiy boyluklarining cheklanganligini tushunib yetish. Ekologik muammolar. Ekologik falsafa va mantiqning shakllanishi. Ekologiyaga oid va insonning tabiatda tutgan o'rni haqidagi bilimlarning rivojlanishi.</p> <p>3-mavzu: Iqlim o'zgarishining astronomik va geofizik omillari</p> <p>Atmosferada quyosh nurlari faolligining roli. Muzlik davrida quyosh nurlari faolligi va iqlimdagi o'zgarishlarni kuzatish. yer shari orbitasini protsessiyasini o'lchash. Yer shari litosfera, gidrosfera va atmosfera evoly-</p>			

utsiyasida massaning roli. Planeta yadrosi geotermal issiqligi roli. Yer va Oyning aylanish tezligi, gravitatsion va magnit maydonlari. Tektonika va vulkanizm.

4-mavzu: Endogen (ichki) geologik jarayonlarning ekologik sharoitga ta'siri. Tabiatning rivojlanish ritmi

Yer qobig'i plitasi va kontinentlar dreyfi. Tektonik jarayonlar, tog'larning yemirilishi va orogenez. Tirik materiyaning tezlashish jarayonlari. Markaziy Osiyoda nam harorat va muzlik.

5-mavzu: Yerning geologik o'tmishidagi iqlimi. Pleystotsen davri iqlimi. Inson va atrof muhit munosabatlari

Yerda hayotning vujudga kelishi. Paleozoy, Mezozoy, Kaynozoy. Geologik muzlik davrlari. Muzlik izlari. Yevropaning muzlash davridagi Alp tog'lari shkalasi. Quyi va o'rta kengliklar iqlimi. Yer, landshaft va muzlash davri harorati. Markaziy Osiyo relefining shakllanishi. Markaziy Osiyo gidrografiyasi. Pleystotsen davrida Orol-Kaspiy hududi iqlimi. Paleolit.

6-mavzu: Golotsen davri iqlimi va tabiiy sharoiti. Ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar va sivilizatsiyalarning vujudga kelishi

Ilk golotsen davri iqlimi. Golotsen davri iqlim o'zgarishlarini davrlashtirilishi. Yevropa, Sibir va Markaziy Osiyoda golotsen iqlimi. Ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar va sivilizatsiyalarning vujudga kelishi. O'rta Osiyoning neolit, bronza va ilk temir arxeologik davrlarida insoniyat madaniyatining rivojlanishi.

7-mavzu: Milodiy I-II ming yilliklar iqlimi va ekologik muammolari

Yevropada III-IV asrlarda iqlimiy bo'hronlar va xalqlarning buyuk ko'chishi. VII-VIII va IX-X asrlardagi iqlim. O'rta asrlar davrida iqlimdagi asosiy o'zgarishlar. Iqlim o'zgarishi va uning xalqlarning migratsiyasi va iqtisodiga ta'siri. Dengiz sathining o'zgarishi. Yevropa, Markaziy Osiyo va Uzoq Sharqdagi iqlim o'zgarishlari.

8-mavzu: Qadimgi dunyoning ekologik muammolari

Qadimgi zamonlarda vulqon otilishi, zilzila, suv bosishi, qurg'oqchilikning sivilizatsiyalar rivojiga ta'siri. Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining tabiiy muhitga ta'siri. Irrigatsiya-sun'iy sug'orish tizimining rivojlanishi. Suv manbalari va hosildor yerlarni keng miqyosda o'zlashtirilishi. Yerlarni sho'rlanishi masalasi. Urush va talon-tarojliklarning atrof-muhitga salbiy ta'siri. Qadimgi yozma manbalarda atrof-muhitni asrab-avaylashga da'vat. Ekologik omillar va tarixiy jarayonlar o'zgarishining madaniyat taraqqiyotiga ta'siri.

9-mavzu: Ekologik omillar va tarixiy jarayonlar o'zgarishining

madaniyat taraqqiyotiga ta'siri. Migratsiyalar

Tabiiy ofatlar, global kataklizmlar, iqlimning keskin o'zgarishi sababli majburiy migratsiyalar. Migratsiyaning boshqa sabablari (demografik, iqtisodiy, siyosiy). Aholining ko'payishi natijasida yangi o'zlashtirilmagan yerlarni egallash uchun amalga oshirilgan migratsiya. Iqtisodiy sabablardan kelib chiqqan ko'chish (hosildor yerlar, suv manbalari va xom ashyo konlarini o'zlashtirish zaruriyati). Urushlar va talon-tarojlar sababli ko'chish.

10-mavzu: Etnik geografiyasi, etnos va hudud, xo'jalik-madaniy tiplar shakllanishining ekologik omillari

Etnik geografiyasi (etnogeografiya) nima? Etnos va hudud. Qabila va elatlarning hududiy joylashuvi xususiyatlari va tabiiy muhit. Xududiy joylashuvning qonuniyatlari, etnik chegaralar. Madaniy landshaft. Xo'jalik (iqtisodiy) – madaniy turlar shakllanishining ekologik omillari. Etnografik xaritalardagi o'tmish va zamonaviy xalqlarning xududiy joylashuvi.

III. Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Ekologiya tushunchasi. Ekologiyaga oid bilimlarning shakllanishi.
2. Inson va ekologiya rivojlanishining tabiiy shart sharoitlari.
3. Iqlim o'zgarishining geofizik va astronomik omillari.
4. Ekologiya va madaniy landshaft
5. Insonning tabiatdagi o'rni haqida bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi.
6. Inson va atrof-muhit munosabatlari.
7. Markaziy Osiyoning pleystotsen davri iqlimi.
8. Golotsen davri iqlimi.
9. Ishlab chiqaruvchi xo'jalikning paydo bo'lishiga tabiiy sharoitning ta'siri.
10. Zamonaviy ekologik jarayonlar.
11. Markaziy Osiyo paleoekologiyasi resurslari.
12. Qadimgi dunyoning ekologik muammolari.
13. Ekologiya va migratsiyalar.
14. Ekologik omillar o'zgarishining madaniy taraqqiyotiga ta'siri.

Seminar mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Yevropaning pleystotsen davri iqlimi.
2. O'rta Osiyoning pleystotsen davri iqlimi.
3. Pleystotsen davrida Orol-Kaspiy hududi iqlimi.

	<p>4. Qadimgi yozma manbalarda atrof-muhitni asrab-avaylashga da'vat.</p> <p>5. O'rta asrlarning ekologik muammolari.</p> <p>6. O'rta asrlar davrida iqlimdagi asosiy o'zgarishlar.</p> <p>7. Iqlim o'zgarishing xalqlar iqtisodiga ta'siri.</p> <p>8. Migratsiyalarning ekologik omillari.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
3.	<p style="text-align: center;">V. Ta'lim natijalari / kasbiy kompetensiyalar</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida magistr:</p> <ul style="list-style-type: none"> • paleoekologiya va insoniyat tarixining qadimgi davri rivojlanishi xususiyatlari hamda sivilizatsiyaning taraqqiyot yo'nalishlari, evolyutsion bosqichlarini tahlil va tadqiq etish bo'yicha <i>tasavvurga ega bo'lishi kerak;(bilim)</i> • Tarixiy ma'lumotlarni ilmiylik, tarixiylik, xolislik asosida o'rganish <i>ko'nikmalarga ega bo'lish kerak. (ko'nikma)</i> • Paleoekologiya va sivilizatsiya dinamikasi tarixshunosligi va manbashunosligi bo'yicha manbalarni va tadqiqotlarni atroflicha tahlil etish <i>malakalariga ega bo'lish kerak.(malaka).</i>
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish;
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirishi, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olishi, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarishi, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Suleymanov R.X. Shonazarov Sh.B. Paleoekologiya va sivilizatsiya dinamikasi. (O'quv qo'llanma). 2024. 2. Shonazarov Sh.B. Geoarxeologiya. (O'quv qo'llanma). 2021. <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 3. Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. “О‘zbekiston” нашриёти, 2024. – 560 б. 4. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – 408 b. 5. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистонда тараққиёт стратегияси асосида демократик ислохотлар йўлини қатъий давом эттирамиз. 6-жилд. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2023. – 536 б. 6. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 б.

7. Сагдуллаев А.С. Марказий Осиёда тарихий-маданий вилоятларнинг шакилланиши ва этник географияси муаммолари. Т. ; Университет, 2020.
8. Чиникулов Х., Жўлиев А.Х. Умумий геология. Тошкент. 2011.
9. Тернер А. Большая энциклопедия. До исторических животных. М. Изд-во «Оникс». 2006. Djvu.
10. Ртвеладзе Э.В. Цивилизации, государства и культуры Центральной Азии. Т. 2005.
11. Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. Т. Адолат. 2001.
12. Вишняцкий Л.Б. Человек в лабиринте эволюции. Монография. М. Изд. «Вес Мир». 2004. Djvu.
13. Исламов У.И., Крахмаль К.А. Палеоэкология и следы древнейшего человека в Центральной Азии. Т. Изд. «Фан». 1995. pdf.
14. Джуракулов М.Д., Аванесова Н.А. Историография эпохи бронзы Средней Азии. Учебное пособие. Самарканд. Изд. СамГУ. 1983.
15. Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Марказий Осиё археологияси. Ўқув кўлланма. Т. 1990.
16. Хаин В.Е., Короновский Н.В., Ясаманов Н.А. Историческая геология. Учебник. Изд. МГУ. 1997. Djvu.
17. Палеогеография и геоморфология Каспийского региона в плейстоцене. М, 1993.
18. Тўхтаев А. Экология. Т. 2017.
19. Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. Ўқув кўлланма, Т., 2008.
- 20.
21. Султонов П.С., Ахмедов Б.П. Экология ва атроф муҳитни муҳофаза қилиш асослари. Т.: 2004.
22. Матюшин Г.Н. Археологический словарь. М.: Просвещение: АО "Учебная литература". 1996. pdf.
23. Алексеева О.Е., Саввониди Н.Ф. Иллюстрированный Англо-русский-русско-английский историко-археологический словарь. Санкт-Петербург. 1993. Djvu.

Axborot manbalari

1. www.gov.uz
2. www.natlib.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.lex.uz
5. www.google.ru
6. <https://urait.ru/>
7. www.nlr.ru
8. archaeology.uz

7.	O'quv dasturi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti o'quv-uslubiy Kengashining 2024-yil ___-___-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: Suleymanov R.X. – arxeologiya kafedrası professori, t.f.d.
9.	Taqrizchilar: Xaliqova R.E Islom Karimov nomidagi TDTU O'zbekiston tarixi kafedrası mudiri, t.f.d (Turdosh OTM) Mavlanov O'.M Arxeologiya kafedrası professori t.f.d.

